

## TIL-MILLATNING RUHIDIR

**Hasanova Dilfuza Odilovna**

*Qo'qon DU dotsenti*

**Akramova Mubinaxon**

**Umaraliyeva Muslima**

**Qodiraliyeva Madina**

*Qo'qon DU talabalari*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o'zbek tilining ahamiyati, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishidagi jarayonlar va qanday qilib jonajon ona tilimiz oldidagi burchimizni ado etishimiz haqida so'z boradi. Xususan, milliy til har bir xalqning muloqot vositasi ekani, tilning maqomi haqida ham munosabat bildirilgan. Atoqli o'zbek adiblaridan Oybek, Erkin Vohidov; davlat arboblaridan prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fikrlari; sharq allomalaridan Alisher Navoiy hazratlari; g'arb mutafakkirlaridan ma'lum qarashlarni ifodalovchi jumlalar keltirilganki, bu ifoda etilmoqchi bo'lgan fikrimizni yorqin va ravshanroq tushunish uchun lozim.*

**Kalit so'zlar:** *Ona tili, o'zbek tili, O'zbekiston Respublikasi, Rasul Hamzatov, Alisher Navoiy, o'zbek tili, ona, turkiy til.*

**Annotation:** *This article discusses the importance of the Uzbek language, the processes of granting the Uzbek language the status of the state language, and how we fulfill our duty to our beloved native language. In particular, the national language is a means of communication for every nation, and the status of the language is also discussed. The following are excerpts from prominent Uzbek writers Oybek, Erkin Vohidov; from statesmen, the thoughts of our President Shavkat Miromonovich Mirziyoyev; from oriental scholars, Alisher Navoi; from Western thinkers, sentences expressing certain views are presented, which are necessary for a clearer and clearer understanding of the idea we are trying to express.*

**Keywords:** *Native language, Uzbek language, Republic of Uzbekistan, Rasul Hamzatov, Alisher Navoi, Uzbek language, native, Turkish language.*

Taniqli tilshunos, adabiyotshunos Erkin Vohidov "So'z latofati" asarlarida ushbu fikrlarini keltirib o'tishgan edi: Zarif inson so'z qadriga yetadi. So'zning mag'zini chaqib, tub ildizini qidiradi. Insonni ulug'laydigan, uni qaro yerdan osmon-u falakka ko'taradigan fazilat bahramandlikdir. O'z ona tilini sevmagan, til zamirida yotgan tarixni bilmagan, qiziqmagan odam barkamol sanalmas. U kim, qaysi yurt va qaysi millatga mansub ekanidan qat'iy nazar. O'z ona tiling o'z vataningdek aziz, o'z onangdek tabarruk.

Rasul Hamzatov avar tilida gapirganda eshitib hayratga tushganman. Qoyil qolib emas, shu tilda ham she'r yozib bo'ladimi, deb yoqa ushlaganman.

Ikki avar so'zlashsa, o'dag'aylayapti, deb o'ylaysiz. Tishda yong'oq chaqqandek

qarsillagan, tosh yo'lda arava yugurgandek taraqlagan ovozni eshitasiz. Lekin avar o'z tilini sevadi. Ulug' shoirlar bu tilda o'lmas asarlar yozib qoldirganlar". Darhaqiqat, Rasul Hamzatov: " Jonimga masihdir shu ona tilim " — deya o'z tilini jismlarga jon bag'ishlovchi bir beba ho ne'matdek ta'riflagan edilar. Ayonki, bizning ona tilimiz "uch daryodan suv ichgan dengizdir". Negaki, o'zbek tilimiz eski turkiy tiliga, eski turkiy tili esa arab va fors tillariga ma'lum va sezilarli darajada daxldor. Shu bois, o'zbek tilining tarixiy ahamiyatini o'rganmoqchi bo'lsak, dastavval, eski o'zbek tilida, jumladan, eski turkiy tilida yozilgan asarlarga e'tibor qaratishimiz lozim. Nafaqat tarixiy ahamiyati, balki kelajakdagi mavqeini bashorat qilish uchun ham bu usul qo'l keladi. Atoqli adibimiz Oybekning Alisher Navoiyning ziddiyatli hayot yo'li tasvirlangan "Navoiy" romanlaridan ma'lumki, turkiy tili Husayn Boyqaro hukmron bo'lgan davrda davlat tili vazifasini o'tagan. Faqat uning hukmronligi davrida emas, barcha temuriy shahzodalar davrida ham, ayniqsa, Amir Temur davrida rivojlangan.

Bizning ajdodlarimiz ilm-fanga poydevor qo'yishgani bois ham, moziyda insonlar bizning ona tilimiz bo'lgan turkiy tilga qiziqa boshlashgan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobi va Alisher hazratlari o'z nomlarini ham, ona tilimizni ham , o'lmas asarlar yaratishgani tufayli abadiyatga muhrlashdi. Jahon ilm-u faniga qo'shgan hissalari sabab hatto hozirgacha insonlar ularning asarlarni asl holicha o'qish maqsadida bizning tilimizni o'rganishadi. Ko'rinish turibdiki, har qanday til bo'lishidan qat'i nazar, tilning yo'qolib, o'lik tillar qatoriga kirib qolmasligi, tabiiy, asl holicha saqlashning birdan bir chorasi — o'lmas, abadiyatga muhrlaydigan asarlarning yaratilishi, tilga ehtirom va e'tibor ko'rsatish lozimligidir. Quyida yurt boshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fikrlari nihoyatda o'rinli: "Bundan besh asr muqaddam hazrat mir Alisher Navoiy:" Turk nazmida chu men tortib alam, Ayladim ul mamlakatni yakqalam"— deb yozgan edi. Ya'ni ul zot ona tili bayrog'ini baland ko'tarib, butun el-ulusni, yurtlarni shu bayroq ostida birlashtirdim, deya iftixon etganlar.

Barchamizga yaxshi ayonki, ona tili millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinai hayoti — bu uning milliy tili va adabiyotidir".

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Husayn Boyqaro hukmronligi davrida davlat tili turkiy til edi va bu holat keyingi asrlarda Buxoro, Qo'qon, Xiva xonliklar tomonidan davom ettirildi. Afsuski, bu jarayon chor Rossiyasining Markaiy Osiyoni bosib olishi bilan to'xtab qoldi, an'analar unutildi.

Aytamizki: "Til—millat ruhi". O'zi ruh nima? Ruh insonga kirkizilmay turib, faqat jismigina tuproqdan yaralganida, xuddi bir buyumday edi. Axir, barcha narsalar shunday, jismi bor-u ruhi yo'q! Insonga ruh in'om etilgachgina qadrlandi. INSON degan oliv maqomga yuksaldi. Til va millat tushunchasi ham shunday. Til-jismdagi ruh, jism esa millatdir. Tilsiz millat—ruhsiz jism kabi ardoqsiz. Tilimizni "ona" deya tashbeh qildik. Ne bois? Sabab shuki, onamiz kabi benihoya betakror—takrorlanmasligi! Bir go'dakning onasiga mehri-muhabbat, ona iforiyu quchog'idan ayrilmasligi, faqat onasi bag'rida baxtli, ishonchli bo'lgani kabi ona tilimiz ham jonimiz, ruhimiz bilan kirib, tomirimizda qon bo'lib oqib, yurak-yuragimizgacha singib, allalarda bizni orom ettirib, yana qachonki jonimizdan

chiqsagina bizni tark etadi. Jan Pol Sartr e'tirof etganlaridek: "Eng katta xatomiz shundaki, ancha-muncha kichik nuqsonlarimiz bor". Aytimoqchiki, tilimizdagi kichik nuqsonlarga ham e'tibor qaratishimiz lozim. Misol tariqasida, "Davlat tili to'g'risidagi qonun", talablarni olsak bo'ladi. Hattoki oddiy xo'jalik do'konlarimizda ham peshtoqlarda xato uchrasa, ma'lum ogohlantirishlar berilishi, hatto javobgarlikka tortilishi haqli vaziyatdir. G'arb daholaridan bo'lgan Men Sizi: "Kuch bilan tobe qilish qalb bilan tobe bo'lishga olib bormaydi. Kishilarni maftun qilish yo'li bilan tobe qilish ularni quvonch va chin dildan bo'ysunishga o'rgatadi"— deganda yanglishmagandi. Haq so'zni aytgandi. Agarda, biz tilimizni yosh avlodga majburan sevdirib, ularni majburan, zo'rlik orqali tilni sevishga majburlasak, bu aks ta'sir beradi. Biz Navoiy bobomizdek sukut ila, kuchli zarba bilan tan oldirishimiz, tilimizni qudratini ko'rsatib qo'yishimiz, tanitishimiz lozim.

Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona vatanga bo'lgan ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qonuniga aylantirishimiz lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Erkin Vohidov "So'z latofati"
2. Oybek "Navoiy" romani
3. Aql ensiklopediyasi 1-qism. 2018. Hamidulla Abdullayev, Ibrohimjon Sulaymonov.